TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING
QARORI

2025-yil 1-aprel | 87-10-212-Q/25 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 18-martdagi “Viloyat hududidagi davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarni xatlovdan o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 196-10-0-Q/25-son qarori haqida

Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 18-martdagi 196-10-0-Q/25-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 10-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 18-martdagi “Viloyat hududidagi davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarni xatlovdan o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 196-10-0-Q/25-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hududida davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarni xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha tuman ishchi guruhining tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman ishchi guruhi (S.Mirsagatov):

joylarga chiqqan holda, daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish, hisobga olish va qayd etish;

daraxtlar reyestri ma’lumotlarini “Yashil makon” platformasiga kiritish;

xatlov o‘tkazishda yuz yoshdan oshgan daraxtlar aniqlanganda, ularni tabiat yodgorliklari sifatida muhofazaga olish uchun alohida reyestr yuritish;

daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish ishlarini samarali tashkil etish, tashkilot va idoralarning bu boradagi ishini muvofiqlashtirish, mavjud muammolarni tezkorlik bilan hal qilish choralarini ko‘rsin.

Daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman kesimida har oy yakuni bilan viloyat hokimligiga axborot kiritib borsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimligi qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

1-ilova

Tuman hududida davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarni xatlovdan o‘tkazish bo‘yicha tuman ishchi guruhi
TARKIBI

1.	*S.Mirsagatov*	Tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, ***ishchi guruhi rahbari***
2.	*S.Xasanbaev*	Tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i, ***ishchi guruh rahbari o‘rinbosari***
3.	*A.Sultonov*	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
4.	*N.Soipov*	Tuman avtomobil yo‘llari bo‘limi boshlig‘i
5.	O.Abdullxayov	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i
6.	*M.Abdullaev*	Tuman mahallalar uyushmasi boshlig‘i
7.	*X.Asadov*	Tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i
8.	*N.Ubaydullaeva*	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi boshlig‘i
9.	Lavozimga ko’ra	Tuman fermer, dehqon xo‘jaligi va tomorqa yer egalari kengashi raisi
10.	*K.Tillaev*	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
11	Lavozimga ko’ra	Tuman o‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi boshlig‘i
12.	Lavozimga ko’ra	Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i
13.	Lavozimga ko’ra	Tumandagi tijorat banklari rahbarlari
14.	*O.Xoldorov*	Davlat kadastrlari palatasining tuman bo‘limi boshlig‘i
15.	*S.Abduvaliev*	Tuman (shahar) soliq bo‘limi boshlig‘i
16.	*B.Abduraxmobov*	Tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
17.	*N.Niazov*	“Toshkent suv ta’minoti” AJ tuman (shahar) bo‘limi direktori
18.	*I.Mirxamid*	“Hududgaz Toshkent” gaz ta’minoti tuman (shahar) bo‘limi direktori
19	*E.Usmonxo’jaev*	“Toshkent hududiy elektr tarmoqlari” AJ tuman (shahar) bo‘limi direktori

Izoh: *Davlat ekologiya qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari ishchi guruhining ishchi organi hisoblanadi.*

Tuman hokimi **S.Ergashev**